

Universitetda talaba-qizlar bilan shifokor ishtirokida uchrashuv o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (10/1-154 02.02.2023y.) voyaga yetmagan qizlarni erta turmushga berish, istalmagan homiladorlik holatlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi dasturining 4-bandida, umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari hamda, akademik litseylar, professional ta'lim, oliy ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalari o'rtasida erta nikoh va erta tug'ruq, yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohlarning salbiy oqibatlari to'g'risida targ'ibot tadbirlari hamda fakultativ mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadida, joriy yilning 22-fevral sanasida Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida talaba-qizlar bilan Olmazor tumani Talabalar shaharchasi ko'p tarmoqli markaziy poliklinika Bosh shifokor o'rinbosari D.Tursunova, shifokor-ginekolog Y.Rahimova hamda universitetga biriktirilgan terapevt-shifokor M.Sharapova ishtirokida targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

Shuningdek, tadbirda universitet yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i G.Allamova, universitet oila xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor masalaxatchisi, tyutor F.Nabixanova, yoshlar bilan ishlash bo'limi metodisti X.Kamilovalar ham ishtirok etdilar.

Ushbu targ'ibot tadbirini o'tkazishdan maqsad: aholi reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy rivojlangan avlodni voyaga etkazish, erta va qarindoshlar o'rtasidagi nikohning salbiy oqibatlari, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini – sog'lom oilani shakllantirish, talaba-qizlarning tibbiy madaniyatini oshirish, OIV/OITSni oldini olish asoslarini shakllantirish borasida tushuncha hosil qilishdan iboratdir.

Tadbir davomida mutaxassislar mavzuga oid soʻzga chiqib, talaba-qizlarga maʼlumot berib oʻtdilar.

Tadbir soʻngida talaba-qizlar oʻzlari qiziqtirgan savollarga mutaxassislar tomonidan yetarlicha javoblar oldilar. Ushbu tibbiyot mutaxassislari bilan oʻtkazilgan targʻibot tadbiri orqali talaba-qizlarga davlatimiz tomonidan ayollarga koʻrsatilayotgan imtiyozlar, zarur tibbiy maʼlumotlar, shifokor maslahatiga muhtojlarga toʻgʻri yoʻnalishlar, har qanday holatlarda ayol qizlar davlat himoyasida ekanliklari yana bir bor taʼkidlab oʻtildi.





